

IJTIMOY EKALOGIK VAZIYATNING SOG'LOM AVLODNI VOYAGA YETKAZISHGA TA'SIRI

Tog'ayeva Oybachin Do'smamat qizi

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti

*Samarqand filiali "Pedagogika va
psixologiya kafedrası " o'qituvchisi*

Anotatsiya. Mazkur maqolada ijtimoiy ekologik vaziyatning sog'lom avlodni voyaga yetkazishdagi roli tahlil qilingan. Sog'lom muhitda voyaga yetayotgan yosh avlodning jismoniy va ruhiy rivojlanishi, shuningdek, ekologik xavfsizlikning ta'lim-tarbiya tizimidagi ahamiyati yoritiladi. Ijtimoiy ekologik omillar — havoning tozaligi, suv sifati, yashash hududidagi sanitariya holati, shuningdek, aholi salomatligiga ta'sir qiluvchi ekologik muammolar haqida ma'lumotlar keltirilgan. Maqolada shuningdek, sog'lom avlodni shakllantirish uchun ekologik madaniyatni oshirish, oilada va maktabda ekologik tarbiya berish zarurati asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari ijtimoiy ekologik barqarorlikni ta'minlash orqali sog'lom jamiyatni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy ekologik vaziyat, sog'lom avlod, ekologik tarbiya, atrof-muhit, sog'liqni saqlash, yashash muhitining sifati, barqaror rivojlanish, ekologik madaniyat, ijtimoiy salomatlik, bolalar salomatligi.

Inson xayotida uni o'rab turgan tabiiy muhit bugungi kunda farovon hayot kechirishi va uzoq umr ko'rishiga sog'lig'iga va ijtimoiy muhitiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Inson ana shu ijtimoiy muhitda o'zining shaxsiy fazilati, xatti-harakatini namoyon etadi. Inson - tabiat hosili. Unda yashaydi, taraqqiy etadi, zurriyod qoldiradi, shu tufayli undan tabiat qonunlariga ongli munosabatda bo'lishni taqazo etadi. Aks xolda inson undan uzoqlashadi va jazolanadi. Ibtidoiy odam o'z tafakkurini shakllantirayotganda o'zini tabiatning bir bo'lagi deb bilgan va tabiatdagi hodisalar qandaydir kuch-qudrati bilan amalga oshirilishini tasavvur etgan. Keyingi vaqtda inson faoliyatini barcha jabhalarida chuqur sifat o'zgarishlariga olib kelgan fan — texnika inqilobi natijasida insonning tabiatga texnologik ta'sir o'tkazish imkoniyati oshib ketdi, uning quvvati tabiatga ta'sir etish qudrati bilan taqqoslana boshlandi. Insoniyat tabiatini o'zgartiruvchi va qayta tuzuvchi qudratli geologik kuchga aylana boshladi.

Organizm muhitda tasodifiy mehmon emas, u muhitni murakkab tuzilishining bir qismidir. Jamiyatning eng bebaho boyligi odamlar salomatligi, inson xayoti asosidir. Shuningdek yosh avlodni sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish ham bugungi kunda eng murakkab jarayonga aylanib bormoqda. Bugungi kunda jamiyat oldidagi eng

katta muammolardan biri bu ekologik muammolar avj olgan zamonda ruhan va jismonan sog'lom avlodni tarbiyalashdir.

Bu muammo tabiat muhiti bilan bir qatorda ijtimoiy muhitda yuz bergan salbiy o'zgarishlar tufayli paydo bo'ladi. Ijtimoiy muhitning holatiga ta'sir etuvchi ko'plab omillar bo'lish mumkin. Toza ijtimoiy muhit jamiyatning har bir a'zosiga ijobiy ta'sir etadigan, uning xavfsizligini ta'minlaydigan va yer farzandi sifatida barkamol bo'lib voyaga yetishiga ko'maklashadigan barqaror ma'naviy - ruhiy iqlimdir.

Salomatlik insonlarning turmush darajasiga, jamiyatning ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyotiga ko'p darajada bog'liqdir. Tadqiqotchilarning fikriga qaraganda, aholi salomatligining 50 foizi turmush tarziga, qolgan foizi atrof - muhitga bog'liq. Tabiatga atayin ko'ra bila turib, ko'r-ko'rona zarar yetkazish, uning ehsonlaridan ayovsiz foydalanishi insonlarda og'ir asoratlar qoldirishi mumkin.

Jamiyat tarixining muayyan bosqichlarida inson o'z ijtimoiy maqsadlarini amalga oshirishda tabiat boyliklariga vosita sifatida qaragan. Hozirgi kunga kelib esa tabiat bevosita moddiy ehtiyojlarni qondirish manbaidan insoniyatning omon qolishining usuli va sharoitiga aylandi.

Inson sog'lom turmush tarzini yo'lga qo'yishda va sog'lom avlodni tarbiyalashda avvalo sanitariya – gigiena qoidalariga amal qilishi lozim. Sanitariya – gigiena nafaqat salomatlikka balki iqtisodiy jarayonlarga ham ko'p jihatdan tasir etadi

O'zbek oilalarida sanitariya - gigienik ahvolni yaxshilash, atrof - muhit musaffoligini saqlashning asosiy omillaridan biri ishlab chiqarishni yani chiqindilarini zararsizlantirishi va undan qayta foydalanishni yo'lga qo'yishdir. Yer osti foydali qazilma boyliklarini qazib olish natijasida ko'plab chiqindilar qoladiki ular faqat qishloq xo'jaligi uchun zarur bo'lgan yerlarni egallab qolmay, ko'proq hosildorligini ham kamaytiradi, yer osti va yer usti suvlarini hamda havoni zaharlaydi

Ko'p xolda chiqindilar yondirib yuboriladi, va u vaqtida o'chirilmaydi, ba'zan buldozer bilan surib tashlanadi. Bundan tashqari, O'zbekistonning yirik shaharlarida maishiy chiqindilarni qayta ishlaydigan korxonalar yo'q. Shu sababdan bugungi kunda ekologik vaziyatni yaxshilash maqsadida mamlakatimizda ko'plab chora tadbirlar ishlab chiqilib hayotga tadbir etilmoqda.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ekalogik siyosat, ekalogik madaniyat asosini shakllantirishga qaratilgan. Ekalogik madaniyatni shakllantirishda O'zbekiston Kansitutsiyasidagi "Fuqarolar tabiiy atrof - muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburdirlar" (62-modda). "Yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zahiralar umummilliy boyliklar, ulardan oqilona foydalanishi zarur va ular davlat muhofazasidadir" (68-modda) kabi qonunlar ahamiyati katta. Jamiyat bilan atrof - muhit o'rtasidagi o'zaro ta'sirni maqbul holga keltirish kishilar ekalogik tafakkurining yetukligiga, ular ijtimoiy faoliyatining ekalogik omillar ahamiyatini anglab yetish darajasiga bog'liq. Chunki tabiatning o'zi shaxsning ruhiy

va axloqiy - estetik jihatdan rivojlanishiga ta'sir etib, uni ekalogik nuqtai nazardan tarbiyalab boradi. Ekalogik tarbiyaning asosiy maqsadi kishilarda, ayniqsa o'zbek oilalaridagi yoshlarda, ekalogik madaniyatni shakllantirish, tabiatiga oqilona munosabatda bo'lish jamiyatni har bir fuqarosining burchi ekanligini, tabiat qonunlarini chuqur anglashidan iborat. Respublikamizda ekalogik ta'lim va tarbiya quyidagi yo'nalishida amalga oshirilmoqda:

- umumiy ekalogik tarbiya;
- atrof - muhitga ta'sir etuvchi sanoat korxonalari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi kadrlarni tayyorlash;
- konkret ekalogik muammolarni hal etish masalalari bilan shug'ullanuvchi ekolog mutaxassislarni tayyorlash.

Hozirgi kunda respublikamizda oliy o'quv yurtlarida quyidagi sohalar bo'yicha mutaxassis kadrlar tayyorlashga kirishildi: tabiat ekalogiyasi va muhofazasi, tabiatdan foydalanish iqtisodi, tevarak - atrof muhitini muhofaza etish va tabiiy boyliklaridan oqilona foydalanish va uni muhofaza qilish, suv ta'minoti, muhofaza qilish, sifatini standartlash va boshqaruv.

Bularni amalga oshirish insonni tabiat bilan munosabatini uyg'unlashtiradi. Shu asosda kishilar tabiat, hayot, sog'liq, jismoniy va ma'naviy barkamollik ular uchun naqadar zarurligini anglay boshlaydilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi . Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi 2023 yil
2. Alibekov L.A., Nishonov S.A. - Fan-texnika tarakkiyoti, tabiat va inson. Toshkent, 1984
3. I.Karimov. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida. T.1997, 252 - bet.
4. O.Safarov, M. Mahmudov. Oila ma'naviyati, T. 1999.
5. N. To'xliiev. Yo'limiz o'zgacha bo'ldi. Saodat T.1992.
6. Sh.Otaboev. Inson va biosfera. T.1995.